



**O‘ZBEK TILIDA ISHLATILADIGAN RAHMAT, BARAKALLA,
YASHANG MINNATDORCHILIKNI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING
SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

Mirjalol Olimovich Ziyayev

Teacher

"Mendeleev" Private School

Fergana, Uzbekistan

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy ishda o‘zbek tilida minnatdorchilikni ifodalovchi “rahmat”, “barakalla”, “yashang” kabi so‘zlarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Minnatdorchilik so‘zlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Har bir so‘zning semantik ma’nosi, uning kontekstga bog‘liq ravishda qanday o‘zgarishi va nutqiy vazifalari o‘rganiladi. “Rahmat”, “barakalla” va “yashang” so‘zlari nafaqat minnatdorchilik bildirish, balki ayni paytda hurmat, tasdiq va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu ishda, shuningdek, bu so‘zlarning turli jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy va tilshunoslik xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, minnatdorchilik, semantik xususiyatlar, rahmat, barakalla, yashang, tilshunoslik, kommunikatsiya, nutqiy akt, ijtimoiy aloqalar, til va madaniyat.

Ma’lumki, rahmat so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan. Lug‘atshunos I.Javhariy bu so‘z arabcha ر-ح-م (r-h-m) o‘zagidan olingan bo‘lib, mehribonlik, hushmuomalalik, rahmdillik, mehr-shafqat, xayrixohlik ma’nolarini anglatishini qayd etgan [1]. Internet manbalarda rahmat so‘zining “Alloh senga rahm qilsin!” [2] ma’nosini anglatishi ham ko‘rsatilgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [3]da esa rahmat so‘zining shafqat, marhamat, mehribonlik tushunchasini anglatuvchi arabcha so‘z ekanligi, o‘zbek tilida tashakkur va minnatdorchilikni ifodalashda ishlatilishi qayd etilgan. Darhaqiqat, o‘zbek tilida ushbu so‘z barcha nutq uslublarida minnatdorchilikni ifodalashda erkin ishlatiladi.

So‘zlovchi minnatdorlik hissining intensivligini oshirishni ko‘zda tutganda rahmat so‘zi oldidan katta, kattadan-katta, yurakdan, chin qalbdan birliklarini qo‘llaydi. Bunday vaziyatda minnatdorlik hissining samimiyligi, uning chin



yurakdan bildirilayotganligi anglashiladi. Yoki rahmat soʻzida unlini choʻzib talaffuz qilish orqali soʻzga konnotativ maʼno yuklaydi:

– **Rahma-at**, salomat boʻlinglar! – deya xitob qildi u mashshoqlarga. (H.Sultonov. “Bir oqshom ertagi”)

Rahmat soʻzi soʻzlashuv nutqida koʻp ishlatiluvchi Otangga rahmat!, Ota-onangga rahmat! kabi minnatdorchilik nutqiy aktlari tarkibida kelganda ham minnatdorchilik hissiy munosabati yanada kuchli ifodalanadi. Bunday vaziyatda yaxlit sintaktik konstruksiya orqali minnatdorchilik bildiriladi.

Mazkur soʻz nutqda cheksiz, behad, benihoya, ming bor, ming karra, ming marta birliklari bilan birga ishlatilganda minnatdorchilikning miqdor jihatdan ortiqligi ifodalanadi.

Oʻzbek tilida minnatdorchilikni ifodalashda minnatdor(man), minnatdor boʻlmoq, minnatdorchilik bildirmoq soʻzlari ham qoʻllanadi, ammo bu soʻzlar asosan badiiy va pulitsistik uslubda uchraydi. R.Abidovanning taʼkidlashicha, “...Minnatdor” soʻzi va uning “minnatdor boʻlmoq” (minnatdorchilik bildirmoq) qoʻshma soʻz shaklidagi hosilasi minnatdorchilikning rasmiy shakllaridan biri hisoblanib, yozma va ogʻzaki nutqda keng qoʻllaniladi” [4].

Minnatdor(man), minnatdor boʻlmoq, minnatdorchilik bildirmoq soʻzlari ijobiy boʻyoqqa ega boʻlib, salbiy munosabatni ifodalashda ishlatilmaydi. Masalan:

Moʻysafid hassasiga tayanib oʻrnidan turdi-da, titroq tovush bilan: – Hazrat begim, kechikib boʻlsa ham, sizga hamdardlik bildirgani keldim! – dedi.

– **Minnatdormen, taqsir**, – dedi Hamida begim ham oʻrnidan koʻtarilib. (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

Yana kelding hadyaga toʻlib,

Kutmoqdaydik seni intizor.

Qadamingdan **minnatdor boʻlib**

Zarra-zarra toʻkiladi qor... (A.Oripov. “Xush kelibsan, Yangi yil”)

Soʻzlashuv nutqida qoʻllanishga xoslangan barakalla va balli soʻzlari bugungi kunda minnatdorchilik bildirishda, kishilarni maqtash, olqishlashda ishlatiladi.

Barakalla soʻzi arabcha بارك الله فيك soʻzdan olingan boʻlib, slida Alloh sizlarga baraka bersin!, Alloh barakotli qilsin! maʼnolarini anglatadi. Manbalarda ushbu soʻzning kelib chiqishi hadislar bilan bogʻlanishi haqida quyidagi dalillar keltirilgan: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarga kim biror yaxshilik qilsa, uni mukofotlangiz. Agar mukofotlashga biror narsa topolmasangiz, uning haqqiga duo qiling”, deganlar (Abu Dovud rivoyat qilgan). Yana bir rivoyatda Oysha roziyallohu anho bunday deydi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir qoʻy hadya qilindi.



U zot menga: “Uni tarqatib yuboring”, dedilar. Tarqatib qaytgan xodimadan hadyani olganlar nima deganlarini so‘radim. U: “Alloh sizga baraka bersin”, – dedilar, – dedi. Men ham ularning haqqiga “Alloh ularga ham baraka bersin”, deb ular kabi duo qildim va shu bilan hadyamiz beg‘araz bo‘ldi” [5].

Anglashiladiki, barakalla so‘zi aslida qilingan biror yaxshilikka nisbatan bildiriladigan duo sanaladi. Ammo bugungi kunda bu so‘zning ko‘pma’noli so‘z sifatida kattalar tomonidan yoshlarga nisbatan ularning biror bir harakatidan mamnunlikni, ma’qullashni, maqtoovni, tasdiqni, shuningdek, norozilik, qoniqmaslik tuyg‘usini ifodalashda qo‘llanishi ko‘p uchramoqda [6].

Bugungi kunda barakalla so‘zining minnatdorchilikni ifodalashda qo‘llanishi o‘zbek xalqining nutqiy etiketlaridan biriga aylangan. M.Hakimovning ta’kidlashicha, “...kattalarning kichiklarga nisbatan minnatdorchilik tuyg‘usini “barakalla” so‘zi bilan ifodalashi nutqiy etiket ko‘rinishlaridan biridir va u me’yoriy odat deb qaraladi” [7].

Xuddi shunday, balli so‘zining ham nutqda ma’qullash, tasdiqlash, maqtoov, tahsin; cho‘zib talaffuz etilganda norozilik, kesatiq ma’nolarini ifodalashda qo‘llanishi faollashgan [8]. Ammo bu so‘z nutqda so‘zlovchining minnatdorlik hissini aks ettirishda ham ishlatiladi. Qiyoslang:

1. Qaytanga biz o‘zimiz onamga ko‘maklashishga, yumushlarni aytmalaridanoq bajarib qo‘yib, “**balli, bolam**” degan olqishlarini olishga urinardik. (N.Elmirzaeva. “Ertak tinglamay o‘sayotgan bolalar”)

2. – ... Sovg‘a qilgan tufdoning kuch berdi menga, tozalik, tartibga chorladi. **Balli, balli!** (M.Umrzoqov. “Turmush chorrahalarida: buqalamungina otajonim-a!”)

Birinchi gapda balli so‘zining olqishlashda qo‘llanganligi kuzatiladi. Keyingi gapda esa bu so‘z so‘zlovchining berilgan sovg‘aga minnatdorlik hissini aks ettirgan.

Balli so‘zining minnatdorchilikni ifodalashda qo‘llanishi Otangga balli! sintaktik konstruksiyasida ham kuzatiladi:

– Har kuni bir pachkadan cheksang, oyiga – naqd uch ming so‘mdan ziyodroq ketarkan!..

Kapalagim uchib ketdi. Nahot, hisob-kitob qilmasdan chekaveraman? **Otangga balli**, tajang! Shu tobda ko‘zimni moshdek ochding! Chekish faqat sog‘liqqa emas, cho‘ntakka ham katta zarar ekan-ku. (T.Eshbek. “Jurnalist bo‘lish osonmi?”)



Minnatdorchilik nutqiy aktlari tarkibida qo‘llanuvchi Tashakkurlar bo‘lsin”, Rahmatlar bo‘lsin! konstruksiyalari ko‘proq poetik nutqqa xoslanganligi bilan ajralib turadi. Masalan:

Volida-yu padarlarga qulluq va rahmat!

Tashakkurlar bo‘lsin nurli inson zotiga. (A.Oripov. “Jannatga yo‘l”)

Minnatdorchilik nutqiy aktlarini hosil qiluvchi qulluq, qulluq qilmoq leksik vositalarining so‘zlovchining minnatdorlik hissini ifodalashda qo‘llanishi ko‘proq tarixiy asarlarda kuzatiladi. Masalan:

Siz saltanatimizning vakili sifatida Xuroson yurtini so‘raysiz. Bu haqdagi farmoni oliy sizga taqdim etiladi. – **Qulluq, hazrati oliylari!** – dedi o‘rnidai turib, qayta-qayta ta‘zim qilar ekan, Malik Muhammad bu saxiylikdan hayajonlanib... (N.Qobul. “Etti iqlim hoqoni yoxud axt va taxt”)

– O‘g‘il ko‘ribsiz, janobi otaliq – dedi Hamida begim. – Muborak bo‘lsin! – **Qulluq, hazrat begim.** Bizga ne xizmatlar bor? Bilgali keldim. (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

– Eshitdingizmi? – dedi. – Hazrat onam sizga “sherqiz!” deb tahsin aytdilar.

– Chindanmi, a? – Men xam eshitdim! – dedi bo‘z otliq Gulbadan begim. Xamida bonu hayajon ichida otini tolora tomonga burdi-da, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Xonzoda begimga **qulluq qildi.** (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

Muloqot jarayonida insonning minnatdorlik hissini kuchli ifodalashda, uni bo‘rttirib ko‘rsatishda tashakkur, tashakkur bildirmoq, minnatdor, minnatdor bo‘lmoq, minnatdorchilik bildirmoq, qulluq, qulluq qilmoq kabi leksemalari oldidan chin qalbdan, chin yurakdan, chin dildan, qalbdan, yurakdan, dildan, juda, nihoyatda, g‘oyatda, benihoya, behad tarzidagi intensivlikni oshiruvchi birliklar qo‘llaniladi. Qiyoslang: chin yurakdan tashakkur, dildan minnatdor bo‘lmoq, chin qalbdan qulluq qilmoq, juda minnatdor, benihoya minnatdor bo‘lmoq, behad minnatdorchilik bildirmoq kabilar.

R.Abidovanning qayd etishicha, “o‘zbek tilida “tashakkur” so‘zi minnatdorchilikning ko‘proq rasmiy ifodasi hisoblanib, muloqot vaziyati va diskurs xususiyatidan kelib chiqqan holda farqlanadi” [9]. Ammo kuzatishlarimizga ko‘ra badiiy adabiyotda ham tashakkur so‘zi va u orqali hosil bo‘lgan tashakkur etmoq, tashakkur bildirmoq qo‘shma so‘zlarining ishlatilishi kuzatildi. Masalan:

1. – Iltifotingiz uchun **qalbidan tashakkur etamen,** – dedi Sultonmurod titroq ovoz bilan, – sizning ma‘rifat daryongizdan bahramand bo‘lmoq qadar ulug‘ saodatni tasavvur etmoq imkonsizdir... (Oybek. “Navoiy”)



2. – Yaratib berilgan sharoitlardan, g‘amxo‘rlikdan **behad minnatdorman**, – deydi Nargiza, – uyim ish joyimga yaqingina. (A.Mamarasulov. “Nargizaning ishxonasi”)

Berilgan misollarda intensivlikni kuchaytiruvchi qalbimdan, behad birliklari qo‘llangan. Ammo bu vositalar minnatdorchilikni ifodalovchi so‘zlarning har biriga bir xilda birikavermaydi. Masalan, juda tashakkur, g‘oyatda tashakkur, nihoyatda tashakkur bildirmoq, juda qulluq, g‘oyatda qulluq tarzida birikmalar hosil qilib bo‘lmaydi.

Minnatdorchilikni ifodalovchi leksik vositalar cheksiz, ming marta, ming karra, ming bor (ming bora), toabad, bir umr, o‘lguncha (o‘lgunimcha) birliklari bilan bog‘langanda minnatdorlik hissining miqdor jihatdan ko‘pligi, cheksizligi anglashiladi. Ammo bu birliklar ham barcha minnatdorchilikni ifodalovchi leksik vositalarga birikib kelavermaydi. Masalan:

– Hazrat begim, men sizdan **toabad minnatdormen!** (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

Umrim, ey, sen bilan qilib iftixor,

Bo‘layin **o‘lguncha men ham minnatdor.** (G‘.G‘ulom. Tanlangan asarlar)

Dovotim qurimadi, mudom faxriya bitay,

Eng ylug‘ ajdodlardan xayolimga yog‘sin nur.

Shunday zotlarni bergan xalqimga ta‘zim etay,

G‘ururimga g‘ururdosh kim bo‘lsa – **ming tashakkur.** (A.Oripov. “Alloma”)

Ne-ne musibatda qolib boshimiz,

Ne kulfat tortmadik sen bilan birga,

Halol, pokizadir yegan oshimiz,

Ming karra tashakkur peshona terga. (G‘.G‘ulom. “Xotin”)

Shu narsa aniq bo‘ldiki, minnatdorchilik kategoriyasining voqelanishida minnatdorchilikning miqdoriy belgisi ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilida -lar affiksi bilan ham minnatdorchilikning ko‘p marta bildirilishi ifodalanadi:

Ko‘ngil bog‘laganlari kutilmagan tuhfadan hayrat-hayajonga tushishadi, minnatdor bo‘lib, evaziga unga kulib-kulib boqishadi, **rahmatlar** aytishadi. (E.A‘zam. “Pakananing oshiq ko‘ngli”)

Shunisi xarakterliki, mazkur affiks ba‘zida minnatdorlik hissini kuchaytirishda ham ishlatiladi. Bu vaqtda -lar affiksi polifunksional xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan:

Chin dildan **rahmatlar** ayturmiz bugun



Saxovatli ellar oilasiga. (A.Oripov. “Avlodlarga maktub”)

Muloqot jarayonida minnatdorlik hissining intensivligini oshirishda, shuningdek, chuqur soʻzidan foydalaniladi. Bu soʻz minnatdor(man), minnatdorchilik bildiraman, minnatdorchilik izhor etaman birliklari oldidan qoʻllanib, minnatdorlik hissini boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qiladi. Masalan:

Tavallud topgan kunim munosabati bilan chin yurakdan oʻzlarining samimiy tabrik va qutlovlarini yoʻllab, ezgu tilaklarini bildirgan davlat va hukumat boshliqlariga, chet ellik siyosat va jamoat arboblari, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, ishbilarmon doiralar vakillariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoalariga, turli kasb egalari boʻlgan barcha vatandoshlarimizga **chuqur minnatdorigimni izhor etaman.** (Sh. Mirziyoyev nutqidan)[10]

Ayrim hollarda ming soʻzi rahmat soʻzidan oldin kelib, minnatdorchilikning intensivligi, yaʼni kuchli ekanligini aks ettiradi. Bunday vaqtda bildirilgan minnatdorchilikning miqdor jihatdan koʻpligi anglashilmaydi. Masalan:

Ming rahmat koʻksimni nurlarga koʻmib,

Taqdirim yoʻlidan oʻtganing uchun. (G.Asqarova. “Sheʼrlar”)

Xuddi shunday, Otangizga ming rahmat!, Ustozingizga ming rahmat! nutqiy aktlarida ham ming soʻzi orqali minnatdorchilikning miqdoriy belgisi emas, balki sifatiga, uning kuchli ekanligiga ishora qilinadi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. الجوهرى إسماعيل. مصدر: الصحاح. - بيروت: دار العلوم للملايين، 1979. - ج: 5. - ص1. 1929.
2. <https://savollar.islom.uz/s/59233>; <https://islom.uz/maqola/3216>
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 363.
4. Abidova R. Minnatdorchilik nutqiy aktining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz va oʻzbek tillari misolida): Filol. fan. boʻyicha falsafa dokt. (PhD) ... diss. – Urganch, 2024. –B.14.
5. Чўлпонов Ш. “Баракалла”да савоб бор // <http://old.muslim.uz/index.php/english/maqolalar/item/3387>
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2006. – Б.164; Vikilugʻat // <https://uz.wiktionary.org/wiki/barakalla>
7. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 20.
8. Коʻrsatilgan lugʻat. – B.150.



9. Abidova R. Minnatdorchilik nutqiy aktining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) ... diss. – Urganch, 2024. –B.14.

10. Янги

Ўзбекистон

//

<https://yuz.uz/file/newspaper/cf5a39b3ec92518f0fa4266642fb2e6d.pdf>